

H.NURMATOV, N.NORXO‘JAYEV

MUSIQA

1-SINF UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan 10-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2011

UDK 78 (075)
85.31
H 87
BBK 85.31ya71

Mas'ul muharrir: **Q.Ma'mirov** — TDPU professori

Taqrizchilar: **A.Qo'shayev** – BDU dotsenti; **N.Ahmedova** – Respublika Ta'lim markazi bo'lim boshlig'i; **M.Nishonova** – Respublika Ta'lim markazi «Musiqqa, san'at va mehnat ta'limi» bo'limi metodisti; **F.Zoitova** – 261-maktab o'qituvchisi

Davlat budget mablag'lari hisobidan chop etildi. Bepul.

Nurmatov H., Norxo'jayev N.

Musiqqa: 1-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 10-nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 64 b.

I. Muallifdosh.

BBK 85.31ya71

ISBN 978–9943–03–007–7

© H. Nurmatov, N. Norxo'jayev.
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. 2011-yil.





Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

AZIZ BO‘STON – O‘ZBEKISTON

M.Mirzo she’ri **D.Omonullayeva** musiqasi


Bu dunyoda chamanlar ko‘p,
Bu dunyoda vatanlar ko‘p.
Barchasida yashnar gullar,
Barchasida yayrar dillar.

N a q a r o t :

Mening uchun aziz bo‘ston –
O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Chorlar ezgu yo‘llar meni,
Ajdodlarim qo‘llar meni.
Bu Vatanda to‘kmasman yosh,
Bu Vatanda egmasman bosh.

N a q a r o t




MILLIY CHOLG'ULAR BILAN TANISHING




MUSIQANING ASOSI KUYDIR.


«Raq» kuyini tinglang.



**MUSIQADAGI TOVUSHLAR QUYIDAGI
NOMLAR BILAN YURITILADI:
DO-RE-MI-FA-SOL-LYA-SI.**



Tovushlar nomini chapdan o'ngga
va o'ngdan chapga qarab aytishga
o'rganing.



TOVUSHLARNI TO‘G‘RI TALAFFUZ QILISHNI O‘RGANAMIZ



A



U



O



I



Ye



QO'SHIQ AYTISH QOIDALARI

Qo'shiqni to'g'ri ijro etish uchun uni avvalo diqqat bilan tinglab olish lozim.

Qo'shiqni qomatni rostlagan holda tik turib yoki o'tirib aytish kerak.

Qo'shiq aytishdan oldin shoshilmasdan nafas olish va yelkalarni ko'tarmaslik kerak.

So'z o'rtasida nafas olmang.

Qo'shiqda so'zlar aniq eshitilishi uchun unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etish kerak.

Qo'shiq aytganda tovushingiz yengil va chiroyli eshitilsin. Tovushlarni cho'zib ayting.

Qo'shiqni ifodali, tinglovchilarga yoqimli qilib aytish kerak.

Qo'shiqni o'qituvchining qo'liga qarab aytishga o'rganing.



**AU DEGANDA TOVUSH PASTDAN
YUQORIGA CHIQADI.**

O‘QISHNI BILIB OLSANG

M.Yusupov she’ri **M.Dadaboyev** musiqasi


O‘qishni bilib olsang,
Juda yaxshi o‘zingga.
Bolday shira kiradi
Har bir aytgan so‘zingga.

Kitoblar kulib boqar
Sho‘x, o‘ynoqi ko‘zingga.
Gullar poyandoz bo‘lar
Bosgan har bir izingga.

O‘qimishli kishilar
Aqllidir, donodir.
O‘qib bilimli bo‘lsang,
Barcha ishing a‘lodir.



**TOVUSHLAR YUQORI, PAST VA BIR
TEKIS BALANDLIKDA BO'LADI.**



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

OLMA


P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Olmani qarang,
Olmani qarang,
Yuzlari tarang.
Shoxda qaltirar,
Shoxda qaltirar,
Rangi yaltirar.

Ketmas uzilib,
Ketmas uzilib,
Turar tizilib.
Kim olma yesa,
Kim olma yesa,
Mazza-yu mazza!



Musiqqa tovushlari nota bilan yoziladi.
Notalar yoziladigan beshta chiziqqa
NOTA YO‘LI deyiladi.



Ayting-chi, o‘quvchilar qanday
cholg‘ularda chalishmoqda?





SKRIPKA KALITI

Skripka kalitining aylanma qismi nota yo‘lining ikkinchi chizig‘ini qamrab oladi. Ikkinchi chiziqqa SOL tovushi yoziladi. Bu kalit SOL kaliti deb ham ataladi. Skripka kalitini chiroyli yozishga o‘rganing.

ANDIJON POLKASI

Sho'x

Xalq kuyi



TANISHING



Bastakor musiqa yaratadi.



Shoira she'r yozadi.



Xonanda ashula aytadi.



Sozanda kuy chaladi.

Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

BAXTIY ERKATOY

H.Muhammad she'ri
T.Toshmatov musiqasi

Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoiy.
Ertalab turib
Ichmas ekan choy.



Voy, voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoiy.
Darsni qoldirib,
Keyin ishi voy.



TOVUSHQATORLARNING YUQORILASHIB VA PASTLASHIB BORISHI



Fortepiano



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

KUZ

N.Ro‘zimuhamedov she’ri

S.Abramova musiqasi

Kelib yetdi javhar kuz,
Sandiq ochdi gavhar kuz.
Bog‘larning saxovati –
Sochildi noz-ne‘mati.
Lya-lya, lya-lya-lya-lya,
Sochildi noz-ne‘mati.





=



BUTUN NOTA



=



YARIM NOTA



=



CHORAK NOTA



=



NIMCHORAK
NOTA



**QO'SHIQ SO'Z VA OHANGLARDAN
IBORAT. SO'Z HARFLAR BILAN, OHANG
ESA NOTALAR BILAN YOZILADI.**

Musiqqa tinglang

PIANINO

M.Zaynitdinova she'ri


J.Najmiddinov musiqasi

Do, re, mi, fa, sol, Iya, si,
Maktab pianinosi.
Klavishi oq, qora,
Havasing kelar, qara.

Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,
Ohangga soling quloq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib
Qo'shiq aytamiz quvnoq.



TOVUSHLARNING UZUN-QISQALIGI




Butun nota



Butun holatdagi mevalar
butun notani bildiradi.




Olma o'rtasidan bo'linsa, ikkita teng yarim palla hosil bo'ladi.




Yarim nota

Butunning ikkidan biri yarim bo'ladi.





**Qovunni to'rtga bo'lsak,
har bir bo'lagi chorak bo'ladi.**



Chorak nota

Butunning to'rtidan biri chorak bo'ladi.

Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

KICKKINTOYMIZ – GIJINGTOYMIZ

P.Mo'min she'ri

K.Kenjayev musiqasi

Do'stimiz ko'p,
Otimiz cho'p,
Lof qilmaymiz,
Chopqillaymiz.


N a q a r o t :

Kickkintoyimiz–
Gijingtoymiz,
He-he-he-hey!

Bizlar har kun,
O'sib durkun,
Hech qo'rqmaymiz,
Kuch to'playmiz!


N a q a r o t





Nimchorak nota

Butunning sakkizdan biri nimchorak bo'ladi.



Tarvuzni sakkizga bo'lsak, har bir bo'lagi nimchorak bo'ladi.

CHILDIRMA

P.Mo'min she'ri

D.Omonullayeva musiqasi

O'zi oyday,
Ziraklari shildir-shildir.
Chalغانingda
Ohanglari xilma-xildir.

Topsang darrov bildirma,
bildirma, bildirma.
Gumbadagum-gumbadagum,
gumbadagum,
Uning nomi – childirma!



YAKKANAVOZ



ANSAMBL



AYIQCHA

M.Oqilova she'ri

IL.Akbarov musiqasi

Qora ko'zli oq ayiq
Bizga mehmonga kelar.
Yangi yil bayramida
Shodlanib o'ynab berar.

Qani, o'yna, ayiqcha,
Yoningda ko'm-ko'k archa.
Yon-yonidan aylangin,
O'yinchoqlarni ko'rgin.



**HAR BIR ASHULANI OVOZDA KUYLASH VA
TURLI CHOLG'ULARDA CHALISH MUMKIN.**

DO'LONCHA

Xalq kuyi

O'ynoqi



ARCHA QO'SHIG'I

Z.Diyor she'ri **X. Muhamedova** musiqasi

Chaman-chaman bog'larning
Bizlar jambil-rayhoni.
Bizning quvnoq qo'shiqlar
Jaranglatar har yonni.

Salom senga, ko'k archa,
Qishin-yozin yashnaysan.
Yaproqlaring ninacha,
Yasangansan, go'zalsan.



NOTALARNING NOMLARINI AYTING
NOTALARNING BO‘LINISHI YODINGIZDAMI?
BULAR QANDAY CHO‘ZIMDAGI NOTA VA
TOVUSHLAR?



**ASHULA AYTGANDA SO‘ZLARNING
ANIQ VA TUSHUNARLI BO‘LISHIGA
E‘TIBOR QILING.**

ARCHA BAYRAM

P.Mo‘min she‘ri **N.Norxo‘jayev** musiqasi

Hammani ham etar xurram
Barcha bayram, barcha bayram.
Rosa-rosa etar xurram
Archa bayram, archa bayram.

Naqarot:

Bo‘lsa hamki qancha bayram
Eng yaxshisi archa bayram.

O‘rmonzordan qadam tashlab
Yangi yilni kelar boshlab,
Archajonning qish faslida
Kelganligi soz, aslida.

Naqarot



ALIFBO BAYRAMI

P.Mo'min she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Alifbodan
Harflarni
Biz o'rgandik
oz-ozdan.

Minnatdormiz
O'rgatuvchi
Muallimdan –
ustozdan.

Har bir harf
Daftarlarda
Gijinglaydi
toy bo'lib.

Yozganimiz
Ko'rinadi
Yulduz bo'lib,
oy bo'lib.

Naqarot:

Tilimizni
Sayratadi
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni
Yayratadi
Bayramlarning
xurrami.

Naqarot

Oldimizga
Saf tortishdi
Askarlarday harflar.
Barchasiga
Qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot





REBUS

Quyidagi so'zlarni aniqlang:



- vruq	- kord	- sol	- rzand
- ist	venti - tor	- gir	- vul
- no	- chqon	Ga-	- ishtir
- rosat	- yov	- zavor	- ston

Do Si Mi Re Lya Fa Sol




**Tinglaymiz, musiqaga mos qadam
tashlab yurishni o'rganamiz.**

YURISH MARSHI

F.Nazarov musiqasi



Ayting-chi, koptokchalar qaysi chiziq-
larga joylashgan?



LAYLAKQOR

Y.Is'hoqov she'ri **S.Abramova** musiqasi

Laylakqor-u laylakqor,
Laylakqorga men xumor.
Kiydirar keng dalamga
Oq ipakdan ko'ylak qor.

Dehqonlarga tilak qor,
Paxtaoyga kerak qor.
Goho meni quvalab,
Qamar uyga tentak qor.



**MUSIQANI TINGLAB, UNGA
CHAPAK BILAN JO'R BO'LAMIZ.**

CHERTMAK

O'ynoqi

Xalq kuyi



TOPSHIRIQ



Diqqat bilan tinglang va toping:

O'qituvchi quyidagi ikki misoldan qaysi birini aytdi?



Bu misoldan eng uzun tovushlarni qo'l ko'tarib ko'rsating:



Bu tovushqatorda yetmayotgan tovushni ovoz bilan aytib to'ldiring:



DILXIROJ

Xalq kuyi



MUSIQANI DIQQAT BILAN TINGLANG.

DUTOR BAYOTI

Xalq kuyi

Sho'x



The image displays a musical score for the instrument Sho'x, which is a traditional Central Asian stringed instrument. The score is written on two staves in G major (one sharp) and 2/4 time. The melody is characterized by eighth and sixteenth notes. Below the staves is a detailed illustration of the Sho'x instrument, showing its pear-shaped body, fretted neck, and long, thin sound hole.

O'rganamiz, kuylaymiz
SALOM BERGAN BOLALAR

P.Mo'min she'ri **N.Norxo'jayev** musiqasi

Salom bergan bolaning

O'zi odobli,

Kulib turgan yuzlari Naqarot:

Go'yo oftobli.

Salom berish, bu –
A'lo alomat,
Salom berganlar,
Bo'ling salomat.

Salom bergan bolaning

Darsi doim «besh»,

Maktab, uyda, ko'chada

Yaxshilarga esh.

Naqarot



**ASHULA AYTGANDA SO‘ZLARNING ANIQ
VA TUSHUNARLI BO‘LISHIGA E‘TIBOR
QILING.**

O‘rganamiz, kuylaymiz

BINAFSHA

A.Rahmat she’ri

G‘.Qodirov musiqasi


Binafshaxon, binafsha,
Navbahorning gulisan.
Erta bahor ochilib,
Bizni xursand qilasan.



O'rganamiz, kuylaymiz
ONAJONIM

M.Dadaboyev she'ri va musiqasi

Onajonim, mehribonim,
Men gul bo'lsam, Siz bog'bonim.
Ko'zim ochib Sizni ko'rdim,
Siz tufayli inson bo'ldim.
Duo qiling, tezroq o'say,
Tinchlik uchun hissa qo'shay.



O'zingiz toping


1. «DO» notasi qayerda yozilgan?





2. Nechanchi qatordagi tovushqatori to'g'ri yozilgan?

- A) do, re, mi, sol, fa, lya, si, do;
- B) do, mi, re, fa, sol, lya, si, do;
- D) do, re, mi, fa, sol, lya, si, do;
- E) do, re, mi, fa, sol, si, do, lya.

3. «FA» notasi qayerda yozilgan?



4. Eng baland tovushni toping:



5. «SOL» notasi qayerda yozilgan?



6. Eng past tovushni toping.



7. Skripka kaliti qayerda to'g'ri yozilgan?



8. Musiqani kim yaratadi?

- A) shoir;
- B) solist;
- D) bastakor;
- E) rubobchi.




DILOROMNING QO'SHIG'I

I.Donish she'ri **D.Omonullayeva** musiqasi

Quvnoq, xushovoz
Jajji Dilorom.
Qo'shig'i dilga
Baxsh etar orom.



Ayam va dadam
Bo'lsinlar bardam,
Dunyo turguncha
Tursinlar har dam.



GULLOLA

M.Oqilova she'ri

IL.Akbarov musiqasi

Biz bahorda chiqamiz
Dalalarga, bog'larga.
Gullolalar ochilgan
Ko'm-ko'k maysazorlarda.

Dalalarda ochildi
Gunafshalar, lolalar.
Bizga uchib kelishdi
Mayna, bulbul, sa'valar.

Bir tomonda lolalar,
Quvnab terar bolalar.
Bir tomonda qushchalar
Bizni qutlab sayrashar.



Ota-onangiz, aka-opalaringiz yordamida yodlang

KAKLIGIM

N.Orifjon she'ri

N.Norxo'jayev musiqasi

Tumshuqlaring tilladay,
Momiq paring pilladay.
Shoshma, seni bir ko'ray,
Beozor qush kakligim.



Ketolmaysan uzoqqa,
Seni solmam tuzoqqa.
Kel, mehmon bo'l bu boqqa,
Bog'imga tush, kakligim.



KAPALAK

Z.Diyor she'ri

S.Boboyev musiqasi


Hoy gul emgan kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Seni ko'rdim bog'chamda,
Meni qilding jonsarak.

Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda,
So'rib gullar bargini
O'tirasan olchamda.

Borib ushlay deganda
Shoshib qolib uhasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan gulga ko'chasan.



BASTAKORLAR



Mutal Burhonov



G'afur Qodirov



Fattoh Nazarov



Nadim Norxo'jayev



O'zingiz toping

1. Musiqa asarini qanday tinglash kerak?
A) sekinroq gaplashib tinglash kerak;
B) to'polon qilmasdan tinglash kerak;
D) jim o'tirib, diqqat bilan tinglash kerak.
2. Butun notaning ichida nechta yarim nota bor?
A) 4 ta yarim nota bor;
B) 2 ta yarim nota bor;
D) 6 ta yarim nota bor.
3. Nechta chorak nota bir butun notaga teng?
A) 2 ta chorak nota;
B) 8 ta chorak nota;
D) 4 ta chorak nota.
4. Nechta chorak nota yarim notaga teng?
A) 4 ta chorak nota;
B) 2 ta chorak nota;
D) 8 ta chorak nota.
5. Tovushqatorida qanday nota tushirib qoldirilgan?



O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik

RAQS

O'zbek xalq kuyi


Yengil




OLMA

P.Mo'min she'ri D.Omonullayeva musiqasi





Moderato con moto





CHILDIRMA

P.Mo'min she'ri D.Omonullayeva musiqasi



CHITTIGUL

G'. G'ulom she'ri

Xalq kuyi

O'ynoqi



ONAJONIM

M. Dadaboyev she'ri va musiqasi

O'rtacha tez






O'QISHNI BILIB OLSANG

M. Yusupov she'ri **M. Dadaboyev** musiqasi




Tezroq





QIZALOQ

T. Nazarov she'ri **N. Norxo'jayev** musiqasi



DO'LONCHA

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi



DUTOR BAYOTI

O'zbek xalq kuyi

Sho'x



CHERTMAK

O'ynoqi

O'zbek xalq kuyi



ANDIJON POLKASI

O'zbek xalq kuyi

O'ynoqi



MUNDARIJA

Aziz bo'ston – O'zbekiston. M.Mirzo she'ri,	
D.Omonullayeva musiqasi.....	5
Milliy cholg'ular bilan tanishing.....	6–7
Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganamiz	10
Qo'shiq aytish qoidalari	11
O'qishni bilib olsang. M.Yusupov she'ri, M.Dadaboyev musiqasi....	12
Olma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	14
Nota yo'li.....	15
Skripka kaliti.....	16
Baxtiy erkatoiy. H.Muhammad she'ri, T.Toshmatov musiqasi	19
Tovushqatorlarning yuqorilashib va pastlashib borishi	20
Kuz. N.Ro'zimuhamedov she'ri, S.Abramova musiqasi.....	21
Piano. M. Zaynitdinova she'ri, J.Najmiddinov	
musiqasi.....	23
Tovushlarning uzun-qisqaligi. Butun nota.....	24
Yarim nota.....	25
Chorak nota.....	26
Kichkintoyimiz – gijingtoymiz. P.Mo'min she'ri,	
K.Kenjayevo musiqasi.....	27
Nimchorak nota.....	28
Childirma. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	29
Ayiqcha. M. Oqilova she'ri, IL.Akbarov musiqasi.....	31
Do'loncha. Xalq kuyi	32
Archa qo'shig'i. Z.Diyor she'ri, X.Muhamedova musiqasi.....	33
Archa bayram. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	35
Alifbo bayrami. P.Mo'min she'ri, D.Omonullayeva musiqasi.....	36
Rebus.....	37
Yurish marshi. F.Nazarov musiqasi	38
Laylakqor. Y. Is'hoqov she'ri, S.Abramova musiqasi.....	39
Chertmak. Xalq kuyi	40
Topshiriq	41
Dilxiroj. Xalq kuyi.....	42
Dutor bayoti. Xalq kuyi	43
Salom bergan bolalar. P.Mo'min she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi	44
Binafsha. A.Rahmat she'ri, G'.Qodirov musiqasi	45
Onajonim. M.Dadaboyev she'ri va musiqasi	46
Dilromning qo'shig'i. I. Donish she'ri,	
D. Omonullayeva musiqasi.....	49
Gullola. M. Oqilova she'ri, IL.Akbarov musiqasi.....	50
Kakligim. N.Orifjon she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi.....	51
Kapalak. Z. Diyor she'ri, S. Boboyev musiqasi.....	52
Bastakorlar.....	53
O'ynaylik, kuylaylik, qo'shiq aytaylik.....	55–62

HAMIDULLA NURMATOV, NADIM NORXO'JAYEV

MUSIQA

1-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 10-nashri

Muharrir *M.Yo'ldosheva*
Rassomlar: *A.Donets, E.Zokirov*
Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*
Texnik muharrir *T.Smirnova*
Musahhih *D.To'ychiyeva*
Kompyuterda tayyorlovchilar: *B.Ashurov, A.Sulaymonov*

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga 05.04.11-y.da ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16. Kegli 18 shponli. Pragmatic garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. 5,16 shartli bosma toboq. 6,5 nashr tobog'i.
408615 nusxada bosildi. 26-2011 raqamli shartnoma.
_____raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzilimiz: www.iptdgulom.uz
E-mail: iptdgulom@sarkor.uz**